

**GIYOHVAND MODDALAR SAVDOSINING YOSHLAR ORASIDAGI  
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**Vaqqasxonova Durdonaxon Muzaffar qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi*

ORCID: 0009-0004-4273-2370

GMAIL: [vaqqasxonovadurdona@gmail.com](mailto:vaqqasxonovadurdona@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 26.02.2026*

*Revised: 27.02.2026*

*Accepted: 28.02.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Ijtimoiy - iqtisodiy profilaktika, giyohvand moddalar, psixologik moddalar, raqamli platformalar, normativ huquqiy hujjatlar, siyosiy-huquqiy tahlil*

*Maqola 21-asr texnologiyalari va onlayn platformalarning, xususan telegramning, giyohvand moddalar savdosining kengayishidagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqot maqsadi giyohvand moddalarni reklama qilish, uning oldi sotdisida internetning rolini o'rganish, va ta'sir choralari tahlil qilish, giyohvand moddalarga ruju qoyish sabablarini aniqlash va siyosiy huquqiy mexanizmi takomillashtirish boyicha tavsiyalar berishdan iborat. Tadqiqot obyekti O'zbekiston sharoitida giyohvand moddalarning onlayn platformalar orqali tarqatilishi, savdosi va ularning iste'mol qilinishi bilan bogliq ijtimoiy-huquqiy jarayonlar. Tadqiqot predmeti Onlayn xususan telegram platformasi giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga olib keluvchi sharoit, iste'molchilarning giyohvand moddalarga ruju qoyishning asosiy sabablari boladigan omillari, ushbu jarayonga qarshi kurashish mexanizmining samaradorligi. Ishda O'zbekiston va Buyuk Britaniya qonunchiligi asosida giyohvand moddalar savdosiga qo'llaniladigan normativ huquqiy mexanizmlar solishtiriladi. Maqolada giyohvand moddalar savdosining yoshlar orasida kengayishi sabablari, iqtisodiy, ijtimoiy va oilaviy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida miqdoriy sotsiologik so'rovnoma va normativ huquqiy hujjatlarni normativ tahlil qo'llaniladi. Natijalar internet orqali giyohvand moddalar savdosi va yoshlar orasida ruju qo'yish jarayonining murakkab ko'p omilli ijtimoiy hodisa ekanligini, huquqiy choralar samaradorligi esa profilaktika va sanksiyalar uyg'unligi bilan bogliqligini korsatadi. Tadqiqot giyohvand moddalar bilan onlayn savdoga*

*qarshi kurashishda ilmiy strategiyalarni ishlab chiqishi uchun nazariy ahamiyatga ega.*

### **Kirish**

21-asr texnologiyalar rivojlanib inson hayotida asosiy rol oynamoqda. Texnologiyalar esa ayrim hollarda asosiy muommalardan biri giyohvand moddalar savdosining keng tarqalishiga sabab bolmoqda. Kun.uz ning malumotiga kora 2024-yilda giyohvand moddalar savdosi bo' yicha javobgarlikka tortilganlar soni 8373 nafar kishiga yetgan. (tuxsinov, 2025) Bu esa nafaqat aholi sogligiga balki davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va xavfszligiga ham katta xavf solmoqda. Shunga qaramasdan dunyoning koplak mamlakatlarida yoshlar orasida giyohvand moddalar savdosi avj olmoqda. Bu esa yoshlar ortasidagi jinoyatlar soning oshishiga olib keladi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli platformalar orqali giyohvand moddalar to'g'risidagi noqonuniy kontentlarning tez tarqalishi, yoshlarning bunga oson kirish imkoniyatiga ega bo'layotgani va ushbu jarayonning yashirin shaklda amalga oshirilishi giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishni qiyinlashtirmoqda. Telegram orqali savdoning kengayishining Yana bir sababi platformada anonimlik taminlanganligidir. Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish qiyinlashgani sari bu moddalar savdosi ortmoqda bu esa ko'plab yoshlarning zaharlanishiga olib kelmoqda Giyohvand moddalar savdosi soni ortib borishi boyicha koplak tadqiqotlar amalga oshirilgan bolishiga qaramasdan "Dark.net" saytining va telegram orqali giyohvand moddalar savdosi tasir doirasi nazariy tashkil qilinmagan va, yoshlar orasida giyohvand moddalar tasiriga tushib qilishning psixologik sabablari, giyohvand moddalarga jalb qilish omillari xususan telegram sayti orqali savdo qilish chuqur tashkil qilinmagan. Ushbu maqolaning maqsadi giyohvand moddalarni reklama qilish, uning oldi sotdisida internetning rolini organish, va tasir choralarni tahlil qilish, giyohvand moddalarga ruju qoyish sabablarini aniqlash va siyosiy huquqiy mehanizmi takomillashtirish boyicha tavsiyalar berishdan iborat.

Giyohvand moddalar savdosi bo'yicha B. Redonnet, A. Chillet, E. Kombonne , L. Bowed, M. Melchior Giyohvand moddalar qabul qilishning iqtisodiy va oilaviy sabablarini (B. Redonnet, A. Chillet, E. Kombonne , L. Bowed, M. Melchior , 2011), A.K.Cohen esa giyohvand moddalarga savdosiga sabab qilib ishsizlikni (A.K.Cohen, 1995), Elshod.S. esa O'zbekisonning giyohvand moddalar savdosi bo'yicha 2024-2028 yigla moljallangan strategiya (elshod.s., 2024), F. Avazbek esa giyohvand moddalarga savdosi bo'yicha javobgarlik masalasi (o' g' li., 2024), M. Vasek, E. Mariconti, D. Johnsonlar Universitet oquvchilari giyohvand moddalarni qanday usulda olayotgani haqida (M. Vasek, E. Mariconti, D. Johnson, 2023), Michael G Vaughn,Jeffrey J Shook,Brian E Perron,Arnelyn Abdon and Brian Ahmedani esa giyohvand moddalarga ruju qoyish sabablarini emperik

nazariy tadqiqotda organganlar (Michael G Vaughn, Jeffrey J Shook, Brian E Perron, Arnelyn Abdon and Brian Ahmeda, 2025).

Darhaqiqat, turli ilmiy maqolalar va tahlillardan kelib chiqib aytilishimiz mumkinki, giyohvand moddalar istemol qilinishi va noqonuniy savdosining kengayishi murakkab ko'p omilli ijtimoiy hodisadir. Ushbu jarayonning chuqur ildizlari iqtisodiy sharoit, oilaviy muhit, bandlik darajasi, axborot makonidagi ochiqlik hamda onlayn platformaning nazorat qilinishi bilan bogliq. Mavjud adabiyotlar va emperik kuzatuvlar Giyohvandlikka moyillikning kuchayishi, ayniqsa, yoshlar orasida internet imkoniyatlaridan cheklanmagan foydalanish, anonim muloqot kanallari va raqamli bozorlar faoliyatining rivoji bilan bevosita bogliqligini korsatadi. Shu bilan birga, giyohvand moddalarning tarqalishiga qarshi huquqiy choralar samaradorligi ko'proq profilaktika, raqamli monitoring, sanksiyalarning uyg'unlashgan holda qo'llanishiga bog'liq ekani aniqlanadi.

### **Material va metodlar**

Ushbu tadqiqot giyohvand moddalar savdosining internet texnologiyalari, xususan telegram platformasi orqali kengayishi hamda yoshlarning bunday faoliyatga jalb etilishiga tasir etuvchi omillarga qaratildi. Tadqiqotda miqdoriy, sotsiologik so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma 2025-yil oktyabr-noyabr oyida, 18-40 yosh oralig'idagi 30 nafar podent ishtirok etadi. So'rovnoma anonim shaklda, internet platformasida o'tkazildi.

-So'rovnomada quyidagi indikatorlar o'rganiladi.

-Giyohvand moddalar savdosi muommosi haqidaxabardorlik darajasi

-Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishda takliflar

-Giyohvand moddalar haqidagi savdo manbalari

-Jazo choralariga munosabati

Giyohvand moddalar tushunchasida ta'lim muoassalarining ro'li foizli taqsimot asosida qayta ishlanib, deskriptiv tahlil usuli yordamida talqin qilindi. Shuningdek tegishli normativ huquqiy hujjatlarni normativ tahlil qilindi. Olingan miqdoriy malumotlar foizli taqsimot asosida qayta ishlanib, deskriptiv tahlil usuli yordamida talqin qilindi. Shuningdek tegishli normativ huquqiy hujjatlar normativ tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti O'zbekiston sharoitida giyohvand moddalarning onlayn platformalar orqali tarqatilishi, savdosi va ularning iste'mol qilinishi bilan bogliq ijtimoiy-huquqiy jarayonlar Tadqiqot predmeti Onlayn xususan telegram platformasi giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga olib keluvchi sharoit, iste'molchilarning giyohvand moddalarga ruju qoyishning asosiy sabablari boladigan omillari, ushbu jarayonga qarshi kurashish mexanizmining samaradorligi

B. Redonnet, A. Chillet, E. Kombonne, L. Bowed, M. Melchior yuritgan tadqiqotda giyohvand moddalarga moyillik ularning past tabaqada ekanini yoki oilaviy sharoitimi kabi soroqlarga javob bergan. Tadqiqot maqsadi esa yoshlarning giyohvand moddalarga tasiri va ularning ijtimoiy iqtisodiy holati bilan bogliqligi va oilaviy shaxsiy hayoti bilan giyohvand

moddalarga moyilligi ortasidagi holatlarni organish bolgan. Buni aniqlash uchun ular emperik usuldan foydalanhan. Tadqiqotchilar TEMPO uzun muddatli kahort usulida malumotlarni olishgan va sorov otkazishgan. Bundan ular yoshlarning ijtimoiy iqtisodiy holati, malumoti, ishszlik darajasini organish orqali ijtimoiy tengszlikni aniqlashgan. Natijada esa giyohvand moddalarga mukkasidan ketish ularning iqtisodiy holatiga emas balki oilaviy shaxsiy hayotidagi tasirga boshliqligi aytilgan lekin alkagol moddalar, tamakilarga moyillik ijtimoiy iqtisodiy holati bilan bogliq bolib chiqqan. Giyohvand moddalar qabul qiluvchilarda ruhiy nosoglomlik, taziyyq va zoravonlik alomatlari kuzatilgan. Mualliflar esa tengszlikni oilaviy va boshqa zoravonliklarni yuq qiluvchi dasturlarni ishlab chiqarishni taklif qilishgan. A. K. Cohen ham giyohvand moddalar savdosiga Yana bir sabab qilib ishsizlik , hozirgi davrdagi madaniyatga yoshlar moslasha olmasligi, ya'ni ular mehnatsevarlik o'rniga tajavuzkorlik , ma'suliyat orniga jasoratini tanlashadi. Yoshlarda eng yuqori bola olmagan tufayli norozilik va agressiya kuchayadi. Cohenning nazariyasi giyohvand moddalar savdosiga bevosita bogliq bolmasada narkotik moddalarni ijtimoiy ildizlari tushuntirilgan. Giyohvand moddalar savdosi yoshlar orasida tobora kengayib bormoqda. Biroq bu moddalar qayerdan va qanday olinayotgani ko'plab holatlarda noma'lumligicha qolmoqda. Ba'zi yoshlar giyohvand moddalarni qora bozordan xarid qilishadi, ba'zilari esa ularni do'stlari yoki tanishlari orqali yetkazib olishadi. Ayrim hollarda esa, o'quvchilar va talabalar o'zlari ham bu moddalarni tarqatishda ishtirok etishadi. Bu savollarga javob topish maqsadida, Uelsdagi to'qqizta universitet talabalaridan jami 7855 nafar talaba o'rtasida so'rov o'tkazildi. So'rov natijalariga ko'ra, talabalar giyohvand moddalarni turli manbalardan olgan. Bularning eng ko'p qismini esa onlayn platformalar egallaydi. M. Vasek, E. Mariconti, D. Johnsonlar aynan shu onlayn platformadagi giyohvand moddalar savdosi haqida o'rgangan. Maqsadi esa bu giyohvand moddalarni qanday olayotgani va reklama qilayotgani va bu insonlarning o'z hayotiga ta'sir qilayotganini o'rganish bo'lgan. Bu uchun nazariya uslubdan foydalanilgan. Bu tadqiqot uchun 56ta ilmiy maqolani oqib organgan. Bu maqolalar shuni korsatadiki, 100 ta onlayn platformaning 13tasi noqonuniy narkotik savdosi bilan shugullanadi. Bu kabi noqonuniy faoliyatini oldingi olish uchun esa algoritimlarni uygunlashtiruvchi sayt kerak boladi. Buning uchun jinoyat, sog'liqni saqlash, sotsiologiya kabi sohalar bilan keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak.

Normativ huquqiy hujjatlar o'zni: Jinoyat kodeksidagi 270-276-moddalar, Giyohvand moddalar va psixotrop moddalar togrisidagi qonuni(1999) "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari" to'g'risida , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni orqali giyohvand moddalar muomilasi qat'iy tartibga soladi. O'zbekison Respublikasi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonuniy muomilasi to'g'risida"gi qonun

=====  
Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ishlab chiqarilishi, tashilishi, saqlanishi, realizatsiya qilinishining tartibini belgilaydi. Bu qonunga kora giyohvand moddalarning royxatini Vazirlar Maxkamasi tasdiqlanishi, giyohvand moddalarni tibbiy va ilmiy maqsadda foydalanish tartibi, bu qonunga amal qilmaganlar uchun jinoiy va ma'muriy javobgarliklar, profilaktika tadbirlar belgilab qoyilgan. Bu qonun xalqaro konvensiyasilarga mos keladi. Misol uchun 1961-1971-1988-yildagi BMTning konvensiyasilarga mos keladi. Dorixon va tibbiyotda foydalanishning aniq holati aniq belgilab qoyilgan. Bu yutuqlariga qaramasdan toliq bilmagan qismlari ham bor. Bu 1999-yildan beri qonun ozgartirilmagan. Lekin giyohvand moddalar savdosi ishib borgan. Misol uchun 2023-yil 8000mingdan ortiq giyohvand moddalar savdosi bilan bogliq jinoyat belgilangan. Bundan tashqari giyohvand moddalar qabul qiluchilarning psixologik sabablari etiborga olinmagan. Men otkazgan sorovnomadan shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi kunda profilaktika tadbirlari yetarli darajada emasligi tufayli aholi giyohvand moddalar savdosining salbiy taraflari haqida yetarlicha malumotiga ega emas. Giyohvand moddalar savdosining salbiy oqibatlarini tushunib yetgan aholi esa javobgarlik choralarini yetarlicha ogir deb bilishmaydi. Bundan tashqari internet orqali giyohvand moddalar savdosi bilan bogliq jinoyatlar uchun alohida belgilangan jazo yoqligi ham aholi tomonidan e'tiborga olingan. PF-73-сон 06.05.2024. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida qonun hujjati normativ-huquqiy sohada muhim yangiliklarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, amaldagi qonunlar va nizomlarga zarur qo'shimchalarni kiritadi. Qonunning maqsadi huquqiy tartibni mustahkamlash, institutlararo mas'uliyatlarni aniqlashtirish giyohvandlikka qarshi kurashish boyicha nazoratni kuchaytirish va giyohvandlikni nazorat qilish sohalarda vakolatlarni takomillashtirish. Asosiy moddalarda (masalan, X modda) nazorat mexanizmlarini kuchaytirish jarimalar va javobgarlik ko'rsatkichlarini yangilash. Hujjat kundalik hayotga ta'sir qiluvchi jihatlarga fuqarolar, muassasalar yoki davlat idoralariga doir qoidalarni o'z ichiga oladi. 2024-Yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston respublikasi giyohvand moddalarga qarshi kurashish boyicha normativ huquqiy hujjatdir. Bu hujjatning asosiy maqsadi PF-73-sonli farmonni ijrosini taminlash hisoblanadi. Bunga kora giyohvand moddalar ustidan nazorat qilish boyicha davlat komissiyasi hududiy qismi tashkil etildi va Milliy markaz sifatida tashkil etildi. Oxirgi qismida esa masul shaxs belgilandi.

QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 270-276-moddalari giyohvand moddalar savdosi uchun javobgarlik bo'lsa Buyuk Britaniyada Misuse of drugs act 1971 qonuni asosida javobgarlik belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra giyohvand moddalar savdosi eng og'ir turiga 5yildan 20yilgacha ozodlikdan mahrum etish ayrim hollarda (uyushgan guruh, tirik miqdor) 15 yildan 20yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi. Buyuk Britaniyada giyohvand moddalar


turi va sodir etilganiga qarab eng yengil jazo 14 yilgacha ozodlikdan mahrum etish eng og'ir jazo esa umrbod ozodlikdan mahrum etish hisoblanadi. Eng keskin jazo esa "life imprisonment" O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida giyohvand moddalar bilan onlayn savdo qilinganligi bo'yicha alohida sanksiya va modda mavjud emas. Buyuk Britaniyada giyohvand moddalar bilan onlayn savdo qilinganligi uchun Class Aga kiruvchi giyohvand moddalar savdosi bilan onlayn shugullansa umrbod qamoq va cheksiz jarimaga tortiladi. (Acts, 1971)

### Tadqiqot natijalari tahlili

1.yoshingiz nechida?



15 ОТВЕТОВ




Giyohvand moddalar savdosi soni ortib borishi boyicha emperik tahlil qilish uchun so'rovnoma o'tkazdim. Bu so'rovnomada 10yoshdan 40 yoshgacha bolgan insonlar qatnashdi. Ularning asosiy qismini 18-35 yoshlilar tashkil qildi. Ularning eng Kam soni 36-40 yoshlilar edi.

2.sizning talim yonalishingiz nima



25 ОТВЕТОВ




Bu so'rovnomani asosan Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti talabalari tomonidan to'ldirildi. Shuning uchun har bir soha vakilining fikrini bilish uchun ularning

sohasini bilish uchun ularning sohasini so'radim. Bu sorovnaga qiziqqanlarning asosiy qismi Xalqaro huquq talabalari edi. Eng Kam soni esa Xalqaro iqtisodiyot talabalari 8%ini tashkil etdi. Xalqaro munosabatlarning talabalari 24%ini tashkil etgan.

3.Sizningcha, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar bugungi kunda dolzarb muammo hisoblanadimi?

[Копировать](#)

25 ОТВЕТОВ




Odamlar Giyohvand moddalar savdosi bo'yicha bilishini ularni qanchalik darajada muhim Deb bilishi so'ralganda, 80% qismi muhim Deb javob bergan , 12% aholining bu bo'yicha fikri mavjud bo'lmagani ta'kidlangan.

4. Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish uchun jazo choralarini:

[Копировать](#)

25 ОТВЕТОВ




Giyohvand moddalar savdosi jinoyati uchun jazolar haqida so'ralganda yarimidan ortiq inson ota ogir jinoyatlar turiga kirgazish kerak deb aytgan. Qolgan yarmi esa og'irlashtirish va qo'shimcha jazoni qo'llashni tanlagan.

5. Sizningcha, giyohvandlikka qarshi kurashishda eng samarali yo'l bu:

 Копировать

25 ответов




Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishning eng foydali yo'li so'ralganda asosiy qismi qattiq jazo qo'llash va ta'lim profilaktika tadbirlarini kuchaytirish kerak ekanligini aytgan.

6. Giyohvand moddalar haqida ma'lumotni asosan qayerdan olasiz?


 Копировать

25 ответов




Internet, onlayn tarmoqlar giyohvand moddalar savdosi boyicha xabar beruvchi asosiy manbasi ekan. 20% aholi esa OAV tomonidan eshitganini tanlagan. Tanishlari va

maktabdan bo'lgan aholi esa deyarli 30%ni tashkil qiladi.



64% aholi voyaga yetmaganlarga sotilgan giyohvand moddalar bilan shugullanuvchilarga jazoni og'irlashtirishni aytgan. Deyarli 30% odam esa hozirda ommalashib borayotgan internet orqali giyohvand moddalar savdosi uchun alohida jazolar kerak ekanligini takidlagan




Giyohvand moddalar savdosi bilan shugullanuvchilarga reabilitatsiyani kerak deb hisoblovchilar 44% va huddi shu miqdordagi odamlar faqat jazo bilan tarbiyalash tarafdori.

9. Siz o'qiyotgan muassasada giyohvandlikning oldini olishga qaratilgan tadbirlar yetarlicha o'tkaziladimi?

 Копировать

25 ответов




Maktab, o'quv dargohlarida giyohvand moddalar savdosini oldini olish boyicha otkaziladigan tarbiya profilaktika ishlariz haqida soralganda 36% aholi yetarli va xuddi shuncha odam ba'zan o'tkazilishini aytgan. 28% insonlarda umuman o'tkazilmagan ekan.

10. Sizningcha, giyohvandlikka qarshi kurashda talabalar o'z tashabbuslari bilan (klublar, aksiyalar, loyihalar orqali) faol ishtirok etishlari kerakmi?

 Копировать

25 ответов



Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishda talabalar roli soralganda 52% odam ishtirok etishi tarafdori bolsa, 24% odamlar esa buni faqat davlat organlariga yuklash ekanligini aytgan.

**Xulosa:**

Tadqiqotda olingan emperik natijalar shuni ko'rsatadiki, giyohvand moddalar raqamli shakllari ayniqsa Telegram orqali savdo qilish kengayib bormoqda. Shuningdek kopchilik bu jinoyat uchun yetarli javobgarlik belgilanmagan. Shu bilan birga giyohvand moddalar savdosi boyicha yetarli profilaktika tadbirlari otkazilmagan. Bu esa raqamli xavf

darajasining real holatidan ko'ra yuqoriligini bildiradi. Tahlil jarayonida mavjud huquqiy baza normalari umumiy tartibga solish uchun yetarli bolsa-da, raqamli jinoyatchilikning yangi shakllariga oid aniq talablar, monitoring maxanzimlari va platformalari bilan hamkorlik jarayonlari yanada takomillashtirish kerakligini korsatadi. Shuningdek, giyohvand moddalarga ruju qoyishning asosiy sabablari-stress, ishsizlik, oilaviy muommolar kabi omillari hisoblanadi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda quyidagi huquqiy va tashkiliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli platformalar monitoringni kuchaytirish: Telegram, WhatsApp va boshqa messengerlar bilan xalqaro hamkorlik asosida noqonuniy kontentni aniqlash va taqialash.

2. Giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha normativ huquqiy hujjatlarni modernizatsiya qilish: messengerlar orqali noqonuniy savdo, yashirin reklama, botlar orqali tarqatish jarayonlari uchun alohida modda va og'irlashtiruvchi holat belgilash.

3. Psixologik xizmatlarni kengaytirish: yoshlarning stress, depressiya, va boshqa bosimlat tufayli giyohvandlikka moyilligini kamaytirish uchun maktablarda psixolog darslarini tashkillashtirish

4. Ijtimoiy - iqtisodiy profilaktika: yoshlarning bandligini oshirish uchun sport va madaniy loyihalarni kengaytirish

Umuman olganda, Telegram orqali giyohvand moddalar savdosining kengayishi nafaqat huquqiy balki ijtimoiy va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan kompleks choralarini talab qiladi. Mazkur tadqiqot natijalarini shuni korsatadiki, yoshlarning raqamli madaniyatini kuchaytirish bundan tashqari giyohvand moddalar savdosi bilan shugullanuvchi shaxlarga javobgarlikni kuchaytirish bu muommoni Hal qilish uchun samarali yechim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.A.K.Cohen. (1995). The Culture of the Gang. Free Press. Delinquent Boys.

2.Acts, U. P. (1971). Misuse of Drugs Act 1971. Получено из [legislation.gov.uz](http://legislation.gov.uz): [legislation.gov.u](http://legislation.gov.u)

3.B. Redonnet, A. Chillet, E. Kombonne , L. Bowed, M. Melchior . (2011). Illegal drug use among young adults. Drug and Alcohol Dependence.

4.elshod.s (8 may 2024 г.). O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash takomillashtiriladi. Получено из [gazeta.uz](http://gazeta.uz).

5.M. Vasek, E. Mariconti, D. Johnson. (2023). Understanding and preventing the advertisement and sale of illicit drugs to young people through social media: A multidisciplinary scoping revie. DRUG AND ALHAHOL.

6. Michael G Vaughn, Jeffrey J Shook, Brian E Perron, Arnelyn Abdon and Brian Ahmeda. (2025). Patterns and correlates of illicit drug selling among youth in the USA. DOVEPRES.

7. Fayzulla. A. (12 aprel 2024 г.). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP VOSITALARI HAMDA ULARNING TARMOQLARIGA OID MASALALAR. Получено из scientific-jl.com.

8. tuxsinov, d. (11 mart 2025 г.). O'zbekistonda giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar keskin oshdi. Получено из kun.uz.